LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 9(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

O‘ZBEKISTONDA MUROBAHAGA ASOSLANGAN NASIYA SAVDONING FUQAROLIK-HUQUQIY TABIATI VA UNI RAQAMLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Shoymardonova Mushtariybegim Alisher qizi

Qarshi xalqaro universiteti

“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida islomiy moliyalashtirish xizmatlarining rivojlanishi sharoitida murobahaga asoslangan nasiya savdoning fuqarolik-huquqiy tabiati tahlil qilinadi. Xususan, mikromoliya tashkiloti tomonidan nasiya savdo obyektini sotib olish, unga egalik qilish, mijozga realizatsiya qilish, narx va ustama haqni belgilash, tavakkalchiliklarni taqsimlash hamda taraflarning huquq va majburiyatlari bilan bog‘liq masalalar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, murobaha shartnomalarini elektron shaklda tuzish, raqamli platformalar orqali amalga oshirish va kelgusida smart-kontrakt texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida murobaha munosabatlarini fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish hamda ularni raqamli muhitga moslashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *murobaha, nasiya savdo, islomiy moliya, mikromoliya tashkiloti, fuqarolik huquqi, shartnoma, elektron shartnoma, raqamlashtirish, smart-kontrakt, moliyaviy xizmat.*

Аннотация. *В статье анализируется гражданско-правовая природа торговли в рассрочку на основе мурабахи в условиях развития услуг исламского финансирования в Республике Узбекистан. В частности, рассматриваются вопросы приобретения микрофинансовой организацией*

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 9(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

объекта торговли в рассрочку, владения им, его реализации клиенту, определения цены и наценки, распределения рисков, а также прав и обязанностей сторон. Кроме того, анализируются правовые возможности заключения договоров мурабахи в электронной форме, их исполнения через цифровые платформы и использования в перспективе технологий смарт-контрактов. По результатам исследования разработаны предложения по совершенствованию гражданско-правового регулирования отношений мурабахи и их адаптации к цифровой среде.

Ключевые слова: *мурабаха, торговля в рассрочку, исламские финансы, микрофинансовая организация, гражданское право, договор, электронный договор, цифровизация, смарт-контракт, финансовая услуга.*

Abstract. *The article analyzes the civil-law nature of murabaha-based installment sales in the context of the development of Islamic financing services in the Republic of Uzbekistan. In particular, it examines the acquisition of the object of sale by a microfinance organization, its ownership, its resale to the customer, the determination of the price and mark-up, the allocation of risks, and the rights and obligations of the parties. The legal possibilities of concluding murabaha contracts in electronic form, performing them through digital platforms and using smart-contract technologies in the future are also analyzed. As a result, proposals are developed to improve the civil-law regulation of murabaha relations and to adapt them to the digital environment.*

Keywords: *murabaha, installment sale, Islamic finance, microfinance organization, civil law, contract, electronic contract, digitalization, smart contract, financial service.*

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 9(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

KIRISH

Bugungi kunda moliyaviy xizmatlar bozorining diversifikatsiyalashuvi muqobil moliyalashtirish mexanizmlarini huquqiy jihatdan tartibga solish masalasini dolzarb etmoqda. Shunday mexanizmlardan biri islomiy moliyalashtirish bo‘lib, unda moliyaviy munosabatlarning muayyan turlari foizga asoslangan qarz munosabatlaridan farqli ravishda savdo, sheriklik, ijara va boshqa shartnomaviy modellar orqali amalga oshiriladi [5].

O‘zbekiston Respublikasida ham islomiy moliyalashtirishga oid huquqiy mexanizmlarni shakllantirish jarayoni bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. Xususan, mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishning ayrim shakllarini amalga oshirish imkoniyatining yaratilishi ushbu munosabatlarning amaliy ahamiyatini oshirmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki Boshqaruvining “Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 3536-sonli qarorining [1] qabul qilinishi islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko‘rsatish tartibini qonuniy jihatdan rasmiylashtirishning aniq bir namunasi bo‘ldi. Ushbu maqolada mazkur masalalar O‘zbekiston qonunchiligi asosida batafsil tahlil qilinadi.

Mazkur yo‘nalishda murobaha alohida ahamiyatga ega. Murobaha mohiyatan tovarni uning xarid qiymati va oldindan ma’lum bo‘lgan ustama haq asosida muddatli to‘lov sharti bilan sotishga asoslangan shartnomaviy mexanizm hisoblanadi. Bunda moliyalashtiruvchi subyekt tovarni avval o‘z mulkiga olishi va tegishli tavakkalchiliklarni o‘z zimmasiga olishi muhim shartlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston sharoitida murobaha asosidagi nasiya savdoning huquqiy tartibga solinishi ikki jihatdan muhimdir:

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 9(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Birinchidan, mazkur munosabatlarning fuqarolik-huquqiy tabiatini aniqlash va taraflarning huquq hamda majburiyatlarini belgilash zarur.

Ikkinchidan, zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida bunday shartnomalarni elektron shaklda tuzish va ijro etishning huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Shu nuqtayi nazardan, murobaha asosidagi nasiya savdoning mavjud huquqiy mexanizmini o‘rganish va uni raqamli muhitga moslashtirish masalasi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot davomida tizimli, formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy va tahliliy metodlardan foydalaniladi. Formal-yuridik metod yordamida murobaha asosidagi nasiya savdoni tartibga soluvchi huquqiy normalarning mazmuni tahlil qilinadi. Qiyosiy-huquqiy metod orqali murobaha mexanizmining an’anaviy kredit va nasiya savdo munosabatlaridan farqli jihatlari aniqlashtiriladi. Tizimli yondashuv asosida shartnoma taraflari, shartnoma predmeti, narx, tavakkalchilik va ijro mexanizmlari o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqiladi.

ASOSIY QISM

1. Murobahaga asoslangan nasiya savdoning huquqiy tabiati

Murobaha asosidagi nasiya savdoning muhim xususiyati uning real tovar oldi-sotdisiga asoslanishidir. Bunda mikromoliya tashkiloti mijozning talabiga ko‘ra muayyan tovarni sotib oladi va keyinchalik uni mijozga kelishilgan ustama bilan sotadi.

Mazkur mexanizmni oddiy kredit munosabatlaridan farqlash muhim. Kredit munosabatida asosiy obyekt pul mablag‘lari bo‘lsa, murobaha asosidagi nasiya savdoda asosiy obyekt muayyan tovar hisoblanadi. Shuningdek, murobaha

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 9(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

mexanizmida moliyalashtiruvchi subyekt tovarni sotib olish bilan bog‘liq muayyan mulkiy tavakkalchilikni o‘z zimmasiga olishi talab etiladi.

Murobaha asosidagi nasiya savdoda shartnoma predmetining aniq belgilanishi ham muhim ahamiyatga ega. Tovar nomi, uning qiymati, ustama haq miqdori, to‘lov muddati va boshqa muhim shartlarning aniqligi taraflar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarning barqarorligini ta’minlaydi. Shu jihatdan, nasiya savdo shartnomasida tovarning xarid narxi va ustama haq miqdorining aniq ko‘rsatilishi talab etilishi huquqiy aniqlik prinsipini ta’minlashga xizmat qiladi. Narxning kelgusida aniqlanadigan noaniq ko‘rsatkichlarga bog‘lanishi esa taraflarning majburiyatlari hajmini oldindan belgilash imkoniyatini kamaytiradi.

2. Murobahada mulk va tavakkalchilikning taqsimlanishi

Murobaha mexanizmining muhim huquqiy xususiyatlaridan biri tovarning moliyalashtiruvchi subyekt tomonidan avval sotib olinishi bilan bog‘liq.

Mikromoliya tashkiloti o‘z mulkida bo‘lmagan tovarni mijozga murobaha obyekti sifatida sotishi mumkin emas. Bu talab murobaha munosabatlarini faqat pul mablag‘larini mijozga taqdim etishdan iborat bo‘lgan kredit munosabatlaridan ajratib turadi. Tovarni sotib olish va mijozga yetkazib berish jarayonidagi tavakkalchiliklarning mikromoliya tashkiloti zimmasida bo‘lishi ham mazkur mexanizmning o‘ziga xos jihatidir. Demak, shartnoma tuzilishidan oldingi bosqichda moliyalashtiruvchi subyekt muayyan mulkiy manfaat va tavakkalchilikka ega bo‘ladi. Mazkur holat murobaha shartnomasining haqiqiy savdo munosabatlariga asoslanganligini ko‘rsatadi. Shu sababli murobaha mexanizmini huquqiy tartibga solishda tovarning haqiqiy mavjudligi, uning mulk huquqi bilan bog‘liqligi va tavakkalchilikning qaysi bosqichda kimning zimmasiga o‘tishi masalalariga alohida e’tibor qaratilishi lozim [3].

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 9(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

3. Murobahada narx va ustama haqni belgilash

Murobaha shartnomasining yana bir muhim elementi sotilayotgan tovar narxi va ustama haqning aniqligidir.

Bunda ikki xil qiymatni ajratish mumkin:

birinchisi, mikromoliya tashkilotining tovarni sotib olish qiymati;

ikkinchisi, mijozga sotish qiymati.

Mijoz uchun yakuniy to‘lov summasi shartnoma tuzilgan vaqtda aniq yoki aniqlash mumkin bo‘lgan tarzda belgilanishi huquqiy barqarorlikni ta’minlaydi. Shuningdek, tovarni sotib olish, yetkazib berish va boshqa xarajatlarning narx tarkibiga kiritilishi mumkinligi mazkur xarajatlarning mijozga ochiq ko‘rsatilishini talab qiladi. Bu esa moliyaviy xizmatlar iste’molchisining axborot olish huquqini ta’minlash nuqtayi nazaridan muhimdir [2]. Murobaha shartnomasining yana bir o‘ziga xos jihati shundaki, to‘lov muddatini uzaytirganlik uchun qo‘shimcha haq undirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Mazkur qoida shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki kechiktirganlik bilan bog‘liq munosabatlarni alohida huquqiy tartibga solish zaruratini yuzaga keltiradi.

4. Murobaha shartnomalarini elektron shaklda tuzish masalalari

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatish shakllariga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli murobaha asosidagi nasiya savdoni faqat an’anaviy qog‘oz shaklidagi shartnoma bilan cheklash raqamli moliyaviy xizmatlarning rivojlanish imkoniyatlarini qisqartirishi mumkin. Elektron shakldagi murobaha munosabatlarida mijozning arizasi, tovarni tanlash, sotuvchini aniqlash, tovarni sotib olish, mulk huquqining yuzaga kelishi, sotish va to‘lov jarayonlari yagona raqamli platforma orqali amalga oshirilishi mumkin.

Bunday tizim quyidagi ketma-ketlik asosida tashkil etilishi mumkin:

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 9(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

mijoz arizasi → tovarni tanlash → mikromoliya tashkilotining tovarni sotib olishi → tovarning mikromoliya tashkiloti mulkiga o‘tishi → mijozga sotilishi → elektron shartnoma → muddatli to‘lov.

Mazkur jarayonda elektron identifikatsiya, elektron imzo, elektron hujjat aylanishi va elektron to‘lov vositalaridan foydalanish shartnoma munosabatlarining ishonchliligini oshirishi mumkin. Biroq raqamlashtirish jarayonida murobahaning mazmuniy talablari o‘zgarmasligi kerak. Xususan, raqamli platforma orqali tuzilgan shartnomada ham tovarning haqiqiy mavjudligi, uning kimga tegishli ekanligi, sotish vaqtida mulk huquqi va tavakkalchiliklarning taqsimlanishi kabi masalalar aniq qayd etilishi lozim [4].

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda murobahaga asoslangan nasiya savdo xizmatining joriy etilishi islomiy moliyalashtirish tamoyillarini amaldagi fuqarolik-huquqiy munosabatlar bilan uyg‘unlashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur moliyalashtirish shaklining o‘ziga xosligi shundan iboratki, unda moliyaviy munosabatlar oddiy pul mablag‘larini qarzga berish shaklida emas, balki tovarni sotib olish, unga nisbatan mulk huquqini qo‘lga kiritish va keyinchalik mijozga oldindan kelishilgan narx hamda muddat asosida sotish orqali amalga oshiriladi. Murobaha munosabatlarining fuqarolik-huquqiy tabiatini aniqlashda tovarning mikromoliya tashkiloti tomonidan avval sotib olinishi va uning mulkiga o‘tishi muhim huquqiy mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda mikromoliya tashkilotining tovarni mijozga sotishdan oldin unga nisbatan mulkdor sifatida shakllanishi hamda tovar bilan bog‘liq tavakkalchiliklarni muayyan davr davomida o‘z zimmasiga olishi

Issue - 9(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

murobaha mexanizmini oddiy nasiya savdo yoki kredit munosabatlaridan farqlovchi asosiy jihatlardan biridir.

Tadqiqot davomida murobaha shartnomasida tovarning qiymati, ustama haqi, sotib olish va yetkazib berish xarajatlari, mulk huquqining o‘tishi, tavakkalchiliklarning taqsimlanishi hamda tomonlarning huquq va majburiyatlari aniq belgilanishi zarurligi asoslandi. Ayniqsa, narx va ustama haqining oldindan aniq belgilanmagan yoki kelgusida noma’lum ko‘rsatkichlarga bog‘langan holda shakllantirilishi huquqiy aniqlik tamoyiliga zid kelishi mumkin. Shu sababli murobaha shartnomalarida narxni aniqlash mexanizmining shaffofligi alohida huquqiy ahamiyat kasb etadi.

Murobaha xizmatlarini raqamlashtirish esa mazkur munosabatlarning yangi bosqichini shakllantirish imkonini beradi. Mijoz arizasining elektron shaklda berilishi, tovarning raqamli platforma orqali tanlanishi, mikromoliya tashkilotining tovarni elektron savdo tizimlari orqali xarid qilishi, mulk huquqini tasdiqlovchi elektron hujjatlarning shakllantirilishi, elektron shartnoma tuzilishi va to‘lovlarning raqamli amalga oshirilishi murobaha jarayonining tezkorligi hamda shaffofligini oshirishi mumkin.

Shu bilan birga, raqamlashtirish faqat shartnomani elektron shaklga o‘tkazish bilan cheklanmasligi lozim. Murobaha munosabatlarining raqamli modelida tovarning haqiqatan mavjudligi, uning mikromoliya tashkiloti mulkiga o‘tganligi, tovar bilan bog‘liq tavakkalchiliklarning tegishli bosqichda mavjudligi va shartnoma ishtirokchilarining harakatlari elektron tarzda tasdiqlanishi muhim hisoblanadi. Aks holda, raqamli shakl saqlangan bo‘lsa-da, murobahaning mazmuniy va huquqiy talablari to‘liq ta’minlanmasligi mumkin.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 9(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Demak, O‘zbekistonda murobahaga asoslangan nasiya savdoni rivojlantirishning istiqbolli modeli fuqarolik-huquqiy tartibga solish, elektron shartnoma mexanizmlari, raqamli identifikatsiya, elektron hujjat aylanishi va zamonaviy fintech infratuzilmasining o‘zaro integratsiyasiga asoslanishi lozim. Bunday yondashuv islomiy moliyalashtirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish bilan bir qatorda, raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi turdagi shartnomaviy munosabatlarni shakllantirish uchun ham huquqiy zamin yaratadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, O‘zbekistonda murobahaga asoslangan nasiya savdoni huquqiy va raqamli jihatdan takomillashtirish bo‘yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Murobaha shartnomasining huquqiy modelini alohida tizimlashtirish. Fuqarolik-huquqiy tartibga solishda murobahaga asoslangan nasiya savdoning asosiy elementlarini, ya’ni tovarni sotib olish, mulk huquqining mikromoliya tashkilotiga o‘tishi, tavakkalchilikning mavjudligi, mijozga qayta sotish, narx va ustama haqining aniqligi hamda muddatli to‘lov mexanizmlarini yagona huquqiy model sifatida tizimlashtirish maqsadga muvofiq.

2. Elektron murobaha shartnomasining maxsus huquqiy mexanizmini ishlab chiqish. Murobaha shartnomalarini raqamli platformalarda tuzishda elektron oferta va aksept, elektron imzo, mijozni identifikatsiya qilish, tovarning elektron tasdig‘i, shartnoma nusxasini saqlash hamda elektron dalillarni shakllantirish masalalarini yagona algoritm asosida tartibga solish taklif etiladi.

3. Tovar mulk huquqining o‘tishini raqamli tasdiqlash tizimini joriy etish. Murobahaning muhim sharti bo‘lgan “avval sotib olish, keyin sotish” tamoyilini amalda ta’minlash uchun mikromoliya tashkilotining tovarni sotib

olganligi va unga nisbatan mulk huquqining vujudga kelganligini elektron hujjatlar orqali qayd etuvchi mexanizm yaratish zarur.

4. Murobaha jarayonining raqamli algoritmini standartlashtirish. Amaliyotda quyidagi ketma-ketlikni yagona raqamli model sifatida shakllantirish mumkin:

mijoz arizasi → tovarni tanlash → MMTning tovarni sotib olishi → tovarning MMT mulkiga o‘tishi → mijozga sotish → elektron shartnoma → muddatli to‘lov.

Mazkur algoritm har bir bosqichda tegishli elektron hujjat yoki raqamli tasdiqni shakllantirish orqali huquqiy shaffoflikni ta’minlashi mumkin.

5. Smart-kontraktlardan foydalanish imkoniyatlarini huquqiy jihatdan tadqiq etish. Kelgusida muddatli to‘lovlarni avtomatik hisoblash, to‘lov sanalarini nazorat qilish, to‘lovlar amalga oshirilganligini qayd etish va shartnoma shartlarining bajarilishini monitoring qilishda smart-kontrakt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini alohida huquqiy tadqiqot obyekti sifatida rivojlantirish maqsadga muvofiq.

6. Murobaha shartnomalarida iste’molchi huquqlarini kuchaytirish. Mijozga tovarning haqiqiy qiymati, mikromoliya tashkilotining xarid narxi, ustama miqdori, qo‘shimcha xarajatlar, to‘lov jadvali, muddatidan oldin to‘lash oqibatlari va shartnomani bekor qilish shartlari haqida to‘liq va tushunarli axborot berilishini ta’minlovchi talablarni kuchaytirish taklif etiladi.

7. Murobaha bo‘yicha namunaviy elektron shartnoma ishlab chiqish. Mikromoliya tashkilotlari uchun namunaviy elektron murobaha shartnomasini ishlab chiqish amaliyotda huquqiy noaniqliklarni kamaytirishi mumkin. Unda tovarning tavsifi, sotib olish qiymati, ustama, yakuniy sotuv narxi, to‘lov muddati,

tavakkalchiliklarning taqsimlanishi, tomonlarning huquq va majburiyatlari hamda nizolarni hal etish tartibi aniq ko‘rsatilishi lozim.

8. Murobaha va raqamli moliyalashtirish bo‘yicha maxsus ilmiy-amaliy yo‘nalishni shakllantirish. O‘zbekistonda islomiy moliyalashtirish rivojlanib borayotgan sharoitda murobaha, ijara, mudaraba va mushoraka kabi shartnomalarning fuqarolik-huquqiy tabiati, elektron shakli va fintech texnologiyalari bilan integratsiyasini kompleks o‘rganish istiqbolli ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining “Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 3536-sonli qarori.

2. Islamic Financial Services Board (IFSB). IFSB-9: Guiding Principles on Conduct of Business for Institutions Offering Islamic Financial Services. – Kuala Lumpur: IFSB, 2009.

3. Islamic Financial Services Board (IFSB). IFSB-10: Guiding Principles on Shari’ah Governance Systems for Institutions Offering Islamic Financial Services. – Kuala Lumpur: IFSB, 2009.

4. Islamic Financial Services Board (IFSB). IFSB-26: Core Principles for Islamic Finance Regulation (Financial Market Infrastructures). – Kuala Lumpur: IFSB, 2021.

5. Islamic Financial Services Board (IFSB). Technical Note on Financial Inclusion and Islamic Finance (TN-3). – Kuala Lumpur: IFSB.